

## ANZUR (ALLIUM SUVORIWII) PIYOZINING O'SISHI, RIVOJLANISHINI MORFO-BIOLOGIK VA XO'JALIK NUQTAI NAZARDAN BAHOLASH

**Uzoqova Z.J**

*ToshDAU magistranti*

**To'xtayev B.Y**

*ToshDAU b.f.d. professor*

**Annotatsiya :** *Maqolada anzur (Allium suvoriwii) piyozini yetishtirishda turli agrotexnik tadbirlar xona haroratidagi muhitda, laboratoriya sharoitida va dala sharoitida olib borildi hamda ularning univchanligi o'rganish bilan bir qatorda sug'orish meyorlari, begona o'tlarga qarshi kurashish va uning rivojlanish davri, vegetativ va generativ yo'l bilan ko'paytirish usullari keltirilgan*

**Kalit so'zlar:** *generative organ, urug'.vegetative organ, piyozbosh, yer ustki qismi, yer ostki qismi, anzur (Allium suvoriwii) piyozi.*

### KIRISH

O'rta Osiyoning tog'li aholisi, xususan, O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan anzur piyozini tabiiy va qayta ishlangan holda iste'mol qiladi, bu inson organizmi uchun juda foydali. Piyozni turli tuproq sharoitlarida ko'paytirish muhim xalq xo'jaligi muammolaridan biridir. Anzur piyozi yovvoyi o'simlik sifatida katta ahamiyatga ega. Anzur piyozidan dorivor maqsadlarda foydalanish amaliyoti asrlarga borib taqaladi. U xalq tabobatida qirqdan ortiq turdagi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Anzur piyozi, shuningdek, ko'plab biologik faol moddalar, jumladan steroid va triterpen saponinlarni o'z ichiga olganligi sababli qadrlanadi.

Anzur piyozi ko'pincha O'rta Osiyo jensheni deb ataladi. Anzur piyozi yaxshi saqlanib qolgan, garchi uni yig'ish ko'plab o'rmon xo'jaliklari va aholi tomonidan unchalik to'g'ri amalga oshirilmaydi. Mahsulotning ahamiyatini yetarlicha baholamaslik natijasida keyingi yillarda tog'li hududlarda uning tabiiy o'sishi keskin kamayib, buning natijasida aholining undan kam iste'mol qila olmasligiga olib keldi. Shu munosabat bilan anzur piyozi qizil kitobga ham kiritilgan. Istemol qilish uchun anzur piyozini asosan tog'li hududlardan olib kelish yo'lga qo'yilgan. Tog'larda yig'ib olingan anzur piyozlari har doim ham qayta ishlash sanoati talablariga javob bermaydi, chunki pichanlarning chuqur paydo bo'lishi tufayli hosilning ko'p qismi o'rim-yig'im paytida mexanik shikastlanadi. Anzur piyozlari 35 sm va undan ortiq chuqurlikda joylashgan bo'lib, ularni qazish va tashish juda mashaqqatli bo'lib, piyozlarni qazishdan to aholi istemoliga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayon uzoq davom etadi. Anzur piyozi O'rta Osiyoning tog' va tog' etaklarida, shu jumladan O'zbekistonning tog'li hududlarida o'sadi. Bu holat ushbu hududning kelib chiqish markazlaridan biri ekanligini isbotlaydi.

2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar

Mahkamasining 2015 yil 20-apreldagi №32 sonli bayonnomasi, 16-bandini ijrosini ta'minlash maqsadi "Tibbiyot amaliyotiga joriy etilgan dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Shuning barobarinda farmasevtika sanoati va aholini dorivor o'simlik xom ashyosiga bo'lgan talabini qondirish va o'simlik xom ashyosi asosida zamonaviy dori darmonlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2013- yil 5- avgustdagi 222 - sonli majlisi bayoning 3 - bandida ko'rsatilgan - "Dorivor o'simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkillashtirish uchun dorivor o'simliklarni sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish" va 2015 – yil 20 – yanvardagi № 5 – sonli "2015-2017 yillarda O'rmon xo'jaliklar tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o'simlik xom ashyosini etishtirish tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida" gi majlis bayonnomasining 1.12 bandi ijrosini taminlash bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilgan.

Yangi va ekilishi kerak bo'lgan dorivor o'simliklar agrotexnikasi VILR hamda uning tajriba stansiyalarida, qisman fanlar akademiyasi (O'zRFA), universitetlar va oliy o'quv yurtlarining botanika bog'larida ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizning turli hududlarida joylashgan xo'jaliklarida quyidagi dorivor o'simliklar o'stirilmoqda: xin daraxti, koka butasi, aloe turlari, ortosifon, dixroa, katta kella, sano (kassiya) turlari, meksika bangidevonasi, kalanxoy turlari, uyalchang mimoza, to'q qizil passiflora, rauvolfiya turlari, pushti katarantus (bo'rigul), yumaloq bargli stefaniya, evkalipt turlari, bo'lakli ituzum va boshqalar. Sug'oriladigan maydonlarda o'stiriladigan dorivor o'simliklar yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan katta farq qiladi, ya'ni o'stiriladigan dorivor o'simlik mahsulotida begona o'simliklar aralashmasi bo'lmaydi. Agrotexnika qoidalari asosida o'stirilgan dorivor o'simliklar serhosil va biologik faol moddalarga boy bo'ladi. Dorivor o'simliklarni serhosil navlarini tanlab olish, ularni chatishtirish yoki poliploidli (xromosomalari soni karrali oshirilgan) navlarini olish yo'li bilan ekiladigan dorivor o'simliklarning hosildorligini va tarkibidagi biologik faol bo'lgan kimyoviy birikmalar miqdorini oshirish mumkin.

#### **ANZUR (ALLIUM SUVORIWII) PIYOZINING UNUVCHANLIGINI ANIQLASH**

Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, anzur (allium suvoriwii) piyoziningdala tajribalari oktabr oyining uchinchi o'n kunligida va noyabr oyining birinchi o'n kunligida urug'idan va piyozboshidan ekilsa yaxshi unuvchanlik namayon qildi. anzur (allium suvoriwii) piyozi urug'lari 25 oktabrda 5-noyabr oralig'ida dalaga ekilganda yaxshi unib chiqdi. Laboratoriya sharoitida urug'lar ishlov berib ya'ni muzlatgichda sovuq haroratda saqlanib tajriba olib borilsa 72 % unuvchanlik nomoyon qildi, ishlov berilmasa unuvchanlik namayon qilmaydi.

#### **TADQIQOT BO'YICHA OLIB BORILGAN ISHLAR**

Respublikamizda anzur (Allium suvoriwii) piyoziyuqori va sifatli hosil olishning turli xil usullari Toshkent viloyati misolida o'rganildi. Viloyat sharoitida anzur (Allium suvoriwii) piyozini o'sishi uchun qulay sharoitlar va mos agrotexnik tadbirlar tanlab olindi. Tadqiqot natijalarga asoslanib, fermer xo'jaliklariga tavsiyalar beriladi.

- Anzur (*Allium suvorivii*) piyozi ustida laboratoriya va tajriba yer maydonidatajribalar amalga oshirilganda, o'simlikning faol o'sishi varivojlanishini ta'minlaydigan maqbul me'yorlari aniqlandi;

- Ekishga tayyorlash, ekish chuqurligi va me'yori aniqlandi;

- O'simlikni o'stirishda agrotexnik chora tadbirlar qator oralariga ishlov berish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash va boshqa ko'rsatkichlari reja asosida o'rganildi;

- Anzur (*Allium suvorivii*) piyozi laboratoriya sharoitida ikki xil gradusda tadqiqotlar olib borildi.

- Tadqiqotlarda urug'lar saralab olindi va petri likobchalariga 20 donadan joylanib 20 kun davomida kuzatildi.

- Anzur (*Allium suvorivii*) piyozi urug'i piyoz boshlari keltirilib bahor va kuzda dala sharoitida ekildi.

- Anzur (*Allium suvorivii*) piyozining piyoz boshlari vegetatsiya davri tugagach keltirilib oktabr oyining uchinchi dekadasida dala sharoitida ekildi.

- Egatlar o'rtasida 30-35 sm bo'shliqlarni saqlandi va ko'chatlar orasida esa 20 sm dan joy tashlab ekildi.

- Optimal chuqurlik parametrlari piyozlarning kattaligiga qarab, katta o'lchamli piyozlar 20 sm, o'rta katta kattalikdagi piyozlar 12 sm va eng kichigi 7-8 sm chuqurlikda ekildi.

- Kuzatilgan va amalga oshirilgan ilmiy natijalar asosida anzur piyozi o'simligini ilmiy asoslangan dastlabki yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqildi;

- Ishlab chiqilgan texnologiyalardan dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan o'rmon, fermer, dehqon xo'jaliklarida foydalanildi.

Urug'larning mahsuldorligi elementlarini o'rganishda morfogenetik cheklovlar va populyatsiyaning moslashuvchan ehtiyojlari o'rtasidagi qarama-qarshilik to'g'risida ancha barqaror fikr shakllantirildi, bu evolyutsion kompensatsiyaning taniqli hodisasi bilan yaxshi isbotlangan: ba'zi elementlarning kamayishi. boshqalarni ko'paytirish (Stebbins, 1950). Eng xarakterlisi, har bir o'simlikda hosil bo'lgan urug'lar soni va urug'ning kattaligi o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligi, bu populyatsiyada, navda, shuningdek individual rivojlanishda uchraydi. Bunday korrelyatsiyalar odatda metabolik material uchun raqobatni ko'rsatadi va ekin elementlarining rivojlanishi uchun kompensatsiya shaklida o'zini namoyon qiladi.

Biroq, bunday bog'liqliklar faqat o'ziga xos gulchang rejimiga ega bo'lgan ma'lum naschilik tizimlari uchun xos bo'lishi mumkin, chunki ba'zi turlarda tajribalarda o'z-o'zini changlatishning o'zaro changlanish bilan almashtirilishi ularning soni kamaymasdan ko'proq to'liq vaznli urug'larning shakllanishiga olib keladi. (Galen va boshqalar, 1986). Bunday turlarda, yuqoridagi mualliflar ta'kidlaganidek, urug'lar soni va ularning kattaligi o'rtasidagi bog'liqlik, olingan

gulchaglarning umumiy miqdori va tug'ilish ehtimoli o'rtasidagi muvozanat mavjudligi bilan aniqlanishi kerak.

### 1-jadval

**ANZUR (ALLIUM SUVORIWII) PIYOZINING DALA VA LABARATORIYA SHAROITIDA UNIB CHIQISHINI FENOLOGIK KUZATUV JADVALI. 2022-yil**

№	Urug'lar	Dalada			Labaratoriyada		
		Ekilgan	Unib chiqqan	%	Ekilgan	Unib chiqqan	%
1	Ishlov berilgan urug'lar	200	120	60	100	61	61
2	Ishlov berilmagan urug'lar	200	30	15	100	0	0

Tajribalardan shuni kuzatish mumkinki dalada unib chiqishi nisbatan yaxshi ko'rsatkichlarga, faqatgina labaratoriyada unib chiqdai xolos. Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, anzur (*Allium suvorivii*) piyozining ma'lum bir navi dala tajribalarida oktabr oyining oxiri noyabr oyining boshlarida ekilsa yaxshi unuvchanlik namayon qildi. Agar uni bahorda ekadigan bo'lsak natija ololmaymiz. Sababi urug'lar yirik bo'lganligi sababli tinim davrini yer ostida o'tkazishi kerak bo'ladi. Natijada anzur (*Allium suvorivii*) piyozi urug'larini kuzda dalaga ekilganda yaxshi unib chiqishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqotlar davrida anzur (*Allium suvorivii*) piyozining urug'lari 3 xil muhitda tajribalar asosida univchanligi o'rganildi. Bunda tadqiqotlar xona haroratidagi muhitda, labaratoriya sharoitida va dala sharoitida olib borildi hamda ularning univchanligi o'rganildi.

Anzur (*Allium suvorivii*) piyozi urug'ini labaratoriya sharoitida ikki xil gradus ( $19-27^{\circ}\text{C}$ ) li haroratda uch hafta davomida tadqiqotlar olib borildi. Natijada anzur (*Allium suvorivii*) piyozi urug'lari termostatga joylashtirishdan oldin muzlatilishi kerak ekanligi aniqlandi.

Anzur (*Allium suvorivii*) piyozini dala sharoitida yetishtirishda uni ekishdan oldin yerga agrotexnik talablarga asosan ishlov berildi. Natijada urug'larni egatlarga 100 donadan ajratib ekish va ekilgan urug'lar ustidan qum, go'ng aralashmalari sepish anzur (*Allium suvorivii*) piyozini yaxshi rivojlanishiga olib kelishi aniqlandi. Keyingi tajribalar asosan ekilgan o'simlikning fenologik fazalarini kuzatish bilan olib borildi.

**2-jadval**

**Anzur (*allium suvorivii*) piyozining dala sharoitida vegetatsiya davrida fenologik kuzatuv jadvali. 2022-yil**

	Namuna	Dalada						
		Ekilgan vaqt	Unib chiqqan vaqt	10 kunlik da	Gullashni boshlashi	To'liq gullashi	Xosilni pisha boshlashi	To'liq pishishi
1	Urug'idan ekilgan	03.04	-	-	-	-	-	-
2	Piyozboshidan ekilgan	03.04	-	-	-	-	-	-

Dalada olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, biz o'simlikning ekish vaqtini to'g'ri tanlamaganligimiz sababli natijalar olinmadi. Anzur (*allium suvorii*) piyozi asosan kuz oyida ekiladi va uning vegetatsiyasi davri ham uzoq davom etmaydi. Ya'ni may oyining oxirida piyozlar yetilib o'simlikning yer ustki qismi quriy boshlaydi. Shu sababli biz aynan vegetatsiya davri avjida bo'lgan vaqtda o'simlikni o'stirishga noto'g'ri qaror qabul qilindi. Shu sababdan bu tajriba kutilgan natijani bermadi. Natijada anzur (*Allium suvorii*) piyozining urug'lari yer ostida qishki tinim davrini o'tamasa unuvchanlik past darajani tashkil qilishi mumkinligi aniqlandi.

### 3-jadval

**Anzur (*allium suvorii*) piyozining dala sharoitida vegetatsiya davrida fenologik kuzatuv jadvali. 2023-yil**

	Namu na	Dalada						
		Ek ilgan vaqt	U nib chiqqan vaqt	10 kunlikd a, sm	Gull ashni boshlash i	T o'liq gullas hi	Xo silni pisha boshlas hi	T o'liq pishis hi
	Urug'id an ekilgan	05 .11	2 0.02.	2	-	-	-	-
	Piyozb oshidan ekilgan	05 .11	2 8.11.	5	15. 03.	2 2.03	20 .04.	1 9.05

Dalada olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, biz o'simlikning ekish vaqtini 2023 yilda to'g'ri tanlandi va natijalarga erishildi. Tadqiqotlar davrida anzur (*Allium suvorii*) piyozini yetishtirishda turli agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda sug'orish meyorlari, begona o'tlarga qarshi kurashish va uning rivojlanish davrini nazorat qilib borildi. Bunda anzur (*Allium suvorii*) piyozini yetishtirishda har bir bosqich o'z vaqtida bajarilishi kerak ekanligi o'z isbotini topdi. Olib borilgan tadqiqotlarda anzur (*Allium suvorii*) piyozining urug'lari dalaga noyabr oyining birinchi o'n kunligida yerga ekildi. Bunda anzur (*Allium suvorii*) piyozining urug'larining unib chiqishi yaxshi natija berdi. Ammo hosil olinmadi. Xulosa qilib aytganda urug'idan ekilgan

anzur (*Allium suvorivii*) piyozidan birinchi yil gullamaydi va hosil bermaydi. Bu natijalar bizdan oldin olib borilgan tadqiqotlarda ham o'z isbotini topgan.

**Anzur (*allium suvorivii*) piyozining vegetatsiya davrini davomiyligi.**Anzur (*allium suvorivii*) piyozi – piyozdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Bir joyda o'simlik biologik xususiyatlarini yo'qotmasdan 5-7 yilgacha o'sishi mumkin. Anzur (*allium suvorivii*) piyozida ildiz tizimi o'simlikning yoshiga qarab diametri 3-10 sm bo'lgan sharsimon piyozdir. Undan ildiz kurtaklari chiqib ketadi, uning vazifasi tuproqdan oziq moddalar va namlikni o'zlashtirishdan iborat. Gullash davri may oyining ikkinchi yarmida yoki iyun oyining boshida boshlanadi. Anzur (*allium suvorivii*) piyozi 4-6 donadan iborat diametri 40-50 sm bo'lgan bandsiz uzun va yo'g'on kamarga o'xshash barglar bilan ajralib turadi.

O'simlikning foydali xususiyatlarga boy sanaladi. Masalan, immun tizimini mustahkamlaydi, miya faoliyatini yaxshilaydi, miya faoliyatini yaxshilaydi, organizmning infeksiya va bakteriyalarga chidamliligini oshiradi, shilliq chiqishini rag'batlantiradi, anestetik ta'sirga ega, xotirani mustahkamlaydi, metabolik jarayonlarni faollashtiradi, qondagi shaker miqdorini meyorida saqlashga yordam beradi. Shunga qaramay Anzur (*allium suvorivii*) piyozini ehtiyotkorlik bilan istimol qilish kerak, chunki u allergiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun organizmning reaksiyasiga e'tibor berib, oz miqdorda ratsionga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Inson organizmiga ta'siri jihatidan Anzur (*allium suvorivii*) piyozi jenshen bilan taqqoslanadi.

Ularning barg uzunligi 30-40 sm ga etadi, kengligi esa taxminan 4 sm. Barglarning rangi yashil, gulining rangi esa siyohrang va oq bo'ladi. Shundan so'ng tuxumdon hosil bo'ladi. Anzur (*allium suvorivii*) piyoz urug'lari ko'p jihatdan sarimsoqqa o'xshaydi. Ular may oyining oxirida pishib etiladi. Shundan so'ng barglari va poyalari keskin quriydi va uyqu davri iyun oyining oxirida boshlanadi, bahorgacha davom etadi. Suvorov piyozi yoki Anzur (*Allium suvorovii*) ko'plab bog'bonlar tomonidan yetishtiriladigan erta gullaydigan o'simlik hisoblanadi. Bu yovvoyi o'simlik Oltoyda va Osiyoning tog'li hududlarida joylashgan. Ammo Suvorov piyoz Anzur (*allium suvorivii*) piyozining har qanday iqlim sharoitiga osongina moslashish qobiliyati uni mamlakatning turli mintaqalarida etishtirishga imkon berdi.

O'simlik lola va za'faron bilan birga erta gullashi, shuningdek, inson salomatligi uchun foydali xususiyatlari uchun qadrlanadi. Bu o'simlik iste'mol qilinadigan o'simlik, lekin uni ma'lum bir vaqt ichida iste'mol qilinadi. Aynan shu vaqtda o'simlikning vitaminli ko'katlari qadrlanadi, yosh barglar o'zlarining shiraliligi va nozik tuzilishi bilan ajralib turadi. Anzur (*allium suvorivii*) pishgan piyozini, undagi foydali komponentlar ko'p bo'lishiga qaramay, yangi iste'mol qilinmaydi va uni faqat qayta ishlashdan keyin iste'mol qilish mumkin. U Anzur (*allium suvorivii*) piyozining o'simliklari erta bahorda, qor hali to'liq erimagan paytda boshlanadi. kimyoviy tarkibi boy o'simlik bo'lib, barglari va o'simlikning yer osti qismida vitaminlar, mineral komponentlar majmuasi, shuningdek, efir moylari, qandlar, alkaloidlar, saponitlar mavjud.

**4-jadval**

**Anzur (allium suvorii) piyozining dala sharoitida vegetatsiya davrida fenologik kuzatuv jadvali. 2023-yil**

№	Namuna	Dalada						
		Ekilgan vaqt	Unib chiqqan	10 kunlikda	15 kunlikda	20 kunlikda	25 kunlikda	30 kunlikda
1	Urug'idan ekilgan	05.11	20.02.	2 sm	4 sm	6 sm	10 sm	14 sm
2	Barglar soni	05.11	1 dona	2 dona	3 dona	4 dona	6 dona	8 dona
3	Barglar uzunligi	05.11	0,5 sm	4 sm	5 sm	7 sm	12 sm	17 sm

Tadqiqotlarda anzur (Allium suvorii) piyozi mart oyini oxiri aprel oyining boshida ochiq dalaga qatorlab ekildi. Bu usul anzur (Allium suvorii) piyozi urug'lari sarfini kamaytiradi. Olib borilgan dala sinovlari va turli tadqiqot natijalari asosida Toshkent vohasi sharoitida anzur (Allium suvorii) piyozini urug'larini oktabr oyining oxiri, vegetatsiya davrini o'tab bo'lgan piyoz boshlarini oktabrni oxiri noyabr oyining boshida ekish unib chiqish darajasini oshiradi.

**5-jadval**

**Anzur (allium suvorii) piyozining dala sharoitida vegetatsiya davrida fenologik kuzatuv jadvali. 2023-yil**

Namuna	Dalada							
	Ekilgan vaqt	Unib chiqqan vaqt	10 kunlikda, sm	Gullashni boshlashi	T o'liq gullashi	Xo silni pisha boshlashi	T o'liq pishishi	
Piyoz boshidan ekilgan	05.11	28.11.	5	15.03.	20.03	20.04.	19.05	
Barglar soni	-	1 dona	3 dona	10 dona	10 dona	10 dona	2 dona	
Barglar uzunligi	-	0,5 sm	5 sm	30 sm	40 sm	40 sm	20 sm	
To'p guldagi gullar soni	-	-	-	32	60	58	56	
Urug'i	-	-	-	-	-	-	3	

(bir to'p gulda)								36
------------------	--	--	--	--	--	--	--	----

Olibborilgantadqiqotlardaanzur

(Allium

suvoriwii)

piyoziningurug'laridalagaapreloyiningbirinchio'nkunligidayergaekildi. Bunda anzur (Allium suvoriwii) piyozining urug'larining unib chiqishi past darajalarni namoyon qildi. Natijada anzur (Allium suvoriwii) piyozining urug'lari yer ostida qishki tinim davrini o'tamasa unuvchanlik past darajani tashkil qilishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqotlarda anzur (Allium suvoriwii) piyozi mart oyini oxiri aprel oyining boshida ochiq dalaga qatorlab ekildi. Bu usul anzur (Allium suvoriwii) piyozi urug'lari sarfini kamaytiradi. Olib borilgan dala sinovlari va turli tadqiqot natijalari asosida Toshkent vohasi sharoitida anzur (Allium suvoriwii) piyozini urug'larini oktabr oyining oxiri, vegetatsiya davrini o'tab bo'lgan piyoz boshlarini oktabrni oxiri noyabr oyining boshida ekish unib chiqish darajasini oshiradi.

### XULOSA

1. Tadqiqotlar davrida anzur (Allium suvoriwii) piyozining urug'lari 3 xil muhitda tajribalar asosida univchanligi o'rganildi. Bunda tadqiqotlar xona haroratidagi muhitda, laboratoriya sharoitida va dala sharoitida olib borildi hamda ularning univchanligi o'rganildi. Bundan tashqari dala sharoitida yetishtirishda uni ekishdan oldin yerga agrotexnik talablarga asosan ishlov berildi. Natijada urug'larni egatlarga 100 donadan ajratib ekish va ekilgan urug'lar ustidan qum, go'ng aralashmalari sepish anzur (Allium suvoriwii) piyozini yaxshi rivojlanishiga olib kelishi aniqlandi.

2. Tadqiqotlar davrida anzur (Allium suvoriwii) piyozini yetishtirishda turli agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda sug'orish meyorlari, begona o'tlarga qarshi kurashish va uning rivojlanish davrini nazorat qilib borildi. Bunda anzur (Allium suvoriwii) piyozini yetishtirishda harbir bosqich o'z vaqtida bajarilishi kerak ekanligi o'z isbotini topdi. Anzur (Allium suvoriwii) piyozi urug'ini laboratoriya sharoitida ikki xil gradus ( $19-27^{\circ}\text{C}$ ) li haroratda uch hafta davomida tadqiqotlar olib borildi. Natijada anzur (Allium suvoriwii) piyozi urug'lari termostatga joylashtirishdan oldin muzlatilishi kerak ekanligi aniqlandi.

3. Olib borilgan tadqiqotlarda anzur (Allium suvoriwii) piyozining urug'lari dalaga aprel oyining birinchi o'n kunligida yerga ekildi. Bunda anzur (Allium suvoriwii) piyozining urug'larining unib chiqishi past darajalarni namoyon qildi. Natijada anzur (Allium suvoriwii) piyozining urug'lari yer ostida qishki tinim davrini o'tamasa unuvchanlik past darajani tashkil qilishi mumkinligi aniqlandi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-son farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4670-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1047 sonli Qarori. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2009 yil.
5. O‘ZPITI «Dala tajribalari uslubiyati» - 2007 y
6. Вахобов Мамадамин. Агробиологические особенности и технологии выращивания лука анзура, репчатого лука и их семенников в Таджикистане: диссертация ... доктора Сельскохозяйственных наук: 06.01.01 / Вахобов Мамадамин; [Место защиты:Таджикский аграрный университет имени Шириншох Шотемур], 2018.- 259 с.
7. Красик В.М. Канон врачебной науки и системы лекарственной терапии в старой медицине. // Абу Али Ибн Сино (Авиценна). Канон врачебной науки. Книги о простых лекарствах. Ташкент: Из-во Академии наук Узб. ССР, 1986. – 707 с.
8. Капранов, В. Мудрость веков. Душанбе: Ирфон, 1989. –304 с.
9. Федченко, В.Н. Очерки растительности Туркестана. М., 1925.
10. Сельскохозяйственный энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1989. –515 с.
11. Дадабоева, О. Лекарственные растения Северного Таджикистана: автореферат дис... .к.б.н. -Душанбе, 1967. -18 с.
12. Красная книга Таджикской ССР. –Душанбе: Дониш, 1988. 259 с.
13. Красная книга СССР: под ред. В.В. Чуваева. -М., 1978. -С. 459
14. Бакурас, Н.С., Шодмонходжаев, К.А., Ходжахонова, И.М. Рекомендации по выращиванию дикорастущего лука-анзура. –Ташкент: Фан, 1987. -С. 14.
15. Насретдинов, А. Восстановление естественных запасов горного лука-анзура//Сельское хозяйство Таджикистана, 1973, V, No7, С. 56-58.
16. Комиссаров, В.А., Черных, О.И. Лук-анзур в Подмоскowie //Картофель и овощи. V, 1986. No1. С. 47-48.

17. Кузнецов, А.В., Туголуков, В.П, Туголукова, Г.И. Лук-анзур//Картофель и овощи. V,1982. No9. -С. 24-26.

18. Менгниев, А.Х. Дикий лук-анзур пора ввести в культуру // Картофель и овощи. V, 1990, V, No5, V. С. 26-27.

19. Методика определения экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, новой техники, изобретений и рационализаторских предложений. // 1979.V, No7. - С. 43

20. Вахобов М. Экономическая эффективность выращивания культуры лука - анзура на севере таджикистана. 2016 г. 100-106. с